



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



FARG'ONA VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2024-YIL YANVAR-FEVRAL
OYLARI
(DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 73-241-96-28
www.farstat.uz

Farg'ona viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4 466,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 114,1% ni tashkil etdi.



Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining besh yillik ko'rsatkichlari o'sish tartibida, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan yilga o'sayotganligini ko'rsatadi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Farg'ona viloyatida 2024-yilning yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 111,4 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.






Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xaridorgirligi va aholi talablariga mosligini baholash uchun ham biz sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga to'g'ri kelish ko'rsatkichlarini hisoblab borishimiz kerak.

2024-yilning yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga to'g'ri kelgan sanoat mahsulotlari ko'rsatkichlari shuni bildiradiki, o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlariga nisbatan aholining ehtiyoji o'sganligi hamda aholi sonining ham o'sib borayotganligini

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **4 101,4** mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **91,8 %** ni, tashkil etdi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14,5 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini tashkil etdi.



Yanvar-fevral

2022-y	11,4 mlrd. soʻm
2023-y	11,2 mlrd. soʻm
2024-y	14,5 mlrd. soʻm

FHI, %da

2022-y	52,8%
2023-y	55,4%
2024-y	107,1%

C seksiya

Ishlab chiqaradigan sanoat

2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **4 101,4** mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining **91,8 %** ini tashkil etdi.

Yanvar-fevral

2022-y.	3 206,7 mlrd. soʻm
2023-y.	3 302,7 mlrd. soʻm
2024-y	4 101,4 mlrd. soʻm

FHI, %da

2022-y.	104,3%
2023-y.	98,2%
2024-y	91,8%





Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Dizel yoqilg'isi			Avtomobil benzini			Makaron mahsulotlari		
2024	→	111.8	2024	→	90.6	2024	→	169.4
2023	→	143.7	2023	→	2.2 m	2023	→	43.0
2022	→	102.9	2022	→	111.0	2022	→	114.0
O'simlik yog'i (tozalangan)			Portlandsement			Yumshoq bug'doy va spelta uni		
2024	→	88.4	2024	→	152.9	2024	→	105.0
2023	→	56.7	2023	→	31.0	2023	→	88.8
2022	→	38.5	2022	→	74.3	2022	→	82.2
Neft bitumi			Aroq ming litr (100% spirt)			Uzum vinosi		
2024	→	89.7	2024	→	62.7	2024	→	169.8
2023	→	4.5 m.	2023	→	169.1	2023	→	55.1
2022	→	26.0	2022	→	47.8	2022	→	107.0
Yoqilg'i moyi			Paxta chigiti			Paxta linti		
2024	→	3.4 m.	2024	→	109.6	2024	→	123.2
2023	→	45.8	2023	→	100.2	2023	→	100.5
2022	→	109.2	2022	→	174.8	2022	→	142.9

2024-yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 58,7 ming tonna avtomobil benzini (2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 9,4% ga kamaygan), 67,3 ming tonna dizel yoqilg'isi (11,8 % ga ko'paygan), 14,5 ming tonna kalava ip mahsulotlari (8,7%ga ko'paygan) hamda 2460,6 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar (43,6%ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-fevral	2024-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Avtomobil benzini, ming t	64,8	58,7	-6,1
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t.	33,7	47,1	13,4
Paxta chigiti, ming t.	23,9	28,9	5,0
O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t.	1,6	1,4	-0,2

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta‘mirlash va o‘rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 10,3 % (2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 168,8%), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 42,0% (2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,0 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 12,6% (2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 67,5%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,0 % (2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 81,8 %)ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 %ni (2023-yilning yanvar-fevral oylarida – 0,2 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 11,6 % (10,9 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 22,8% (18,8%) va quyi texnologiyali – 57,0% (63,6%)ni tashkil etdi.




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati 25,1 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,6%ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 174,0 % ni tashkil etgan.


2023-yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati 11,1 mlrd.soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,3%ni etdi oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 57,6 % ga kamaydi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,5 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 24,4 % ga oʻsgan va ishlab chiqarish hajmi 473,1 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 9,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 61,8 % ni tashkil etgan.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish


2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,0 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 18,2 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 575,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 97,6 % ni tashkil etgan.

Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 1,3 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 15,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2023-yilning yanvar-fevral oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 146,9 % ni tashkil etgan.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 33,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 12,9 % ga ko'paygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1 363,3 mlrd.so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 34,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 69,0 % ni tashkil etgan.




Kiyim ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,5 %, fizik hajm indeksi 117,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 267,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 169,2 % ni tashkil etgan.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,1 % ni, fizik hajm indeksi 76,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 250,9 mlrd.so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,9 % ni fizik hajm indeksi esa 112,6 % ni tashkil etgan.

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 6,7 % ni, fizik hajm indeksi 119,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 276,7 mlrd.so'mni tashkil etdi. Shuningdek, 2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,7 % ni fizik hajm indeksi esa 97,7 % ni tashkil etgan.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 % ni, fizik hajm indeksi 147,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 100,1 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,7 % ni fizik hajm indeksi esa 162,0 % ni tashkil etgan.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 142,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 40,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni fizik hajm indeksi esa 123,0 % ni tashkil etgan.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,4 % ni, fizik hajm indeksi 114,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 140,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 % ni fizik hajm indeksi esa 297,8 % ni tashkil etgan.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish


2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,6 %, fizik hajm indeksi 2,9 martaga o'sdi hamda ishlab chiqarish hajmi 188,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 % ni fizik hajm indeksi esa 85,5 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2024-yil yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 296,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,6 % ini) tashkil etadi.


2024-yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,0 mlrd. so'mga ko'payganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-fevral	2024- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	58,6	59,3	0,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	257,5	273,6	16,1

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 53,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,3 %ini) tashkil etdi.




Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-fevral	2024- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	2,7	6,0	3,3
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	2,6	4,4	1,8

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 3,3 mlrd. so'm yoki 2,3 martaga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarini tindirgichlarini va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 1,8 mlrd. so'm va 98,6 %ga ko'paygan.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1196,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 26,8 %ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da



Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd.soʻm)da




Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi


Ishlab chiqaradigan sanoatning to'rtta texnologik tarkibi mavjud bo'lib, ular birgalashib sanoat ishlab chiqarishining asosiy quvvati hisoblanadi.

2024-yil yanvar-fevral oylarida texnologik tarkib bo'yicha quyidagi ishlab chiqarish hajmlari amalga oshirilgan.

2024-yil yanvar-fevral




2023-yil yanvar-fevral




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi
2024-yilning yanvar-fevral oylarida
jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi (foiz)da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 126,1 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 47,6 %ni tashkil etdi. Yillar kesimida taqqoslaganda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi o'sib borayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu ko'rsatkich viloyatda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlariga aholining talabi o'sib borayotganligini hamda eksport hajmi ko'payotganligini bildiradi.

***Jami sanoat mahsulotlari
hajmidagi ulushi (foiz)da***



***Kichik biznes subyektlari
tomonidan ishlab chiqarilgan
sanoat mahsulotlari hajmi
(mlrd.so'm)***




2024-yil 1-mart holatiga

Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Farg‘ona viloyatida **12 529** ta sanoat korxonalari ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib ulardan 7003 tasi faoliyat ko‘rsatmoqda. 2024-yil yanvar-fevral oylarida 217 ta yangi sanoat korxonasi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar

